



QADIMGI DAVR EKOLOGIK DUNYOQARASHINI KO'RINISHLARI

Nuraliyev Elmurod Abdurayemovich

Shahrisabz davlat pedagogika institute Ijtimoiy fanlar kafedrası

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha Dekan o'rinbosari

elmurodnuraliev91@gmail.com

Annotatsiya:

Maqolada ekologik dunyoqarashning umuminsoniy xususiyatlarini shakllantirishga oid bilimlar, Sharq va G'arb allomalari ijod namunalarini ilmiy o'rganish, umumlashtirish va transformatsiya qilish tabiiy atrof-muhit muhofazasiga doir qadriyatlarni universallashtirish. Respublikamizda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish va shaxs ekologik dunyoqarashini ilmiy-pedagogik kompleksni shakllantirish masalalari ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.

Kalit so'zlar: ekologiya, shaxs ekologiyasi, globallashuv, ekologik dunyoqarash, shaxs, jamiyat, ekologik talab, ekologiya sohasi.

Bu davrda tabiat xudolar tomonidan yaratilganligi haqidagi qarashlar paydo bo'ldi. Endi xudolar antropomorf, ya'ni insoniy xususiyatlarga ega bo'lgan. Masalan, grek panteoni xudolari – Zevs, Afrodita, Apollon, Prometey, Gefest va boshqalar kishilarga olovni berishi, metall bilan ishlashni o'rgatishi insonning tabiatni bo'ysundirishga bo'lgan intilishini aks ettirgan.

Bu davr qarashida tabiat ham, insonlar ham xudolar tomonidan yaratilgani uchun xudolar oldida tengdir, ayni paytda ular bir-biriga begona. Tabiat ham o'z ruhiga, joniga ega (masalan, Aristotel fikricha yulduzlar ham jonlidirlar), ammo ularning joni insonnikidan ko'ra "sifatsizroq"dir.

Bu davr qarashlarida inson va tabiatning o'zaro munosabatlari klassik ko'rinishda mikrokosmos va makrokosmos munosabatlarida aks etgan. Kosmologik madaniyat inson va tabiatning birligi g'oyasini ilgari surishi bilan ekologik dunyoqarashda nisbatan yangi davrni boshlab bergan. Bu ta'limotga ko'ra olam tugallangan va yetuk bo'lib, garmoniyaga erishgan ko'plab tabiiy elementlarni qamrab oladi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

Qadimgi grek faylasuflari "kosmos" tushunchasida inson aqliga tushunarli bo'lgan tabiatni aks ettirishgan. Bunda kosmos xaosga (tartibsizlikka) qarshi qo'yilgan. "Mikrokosmos" (ya'ni "inson – bu kichik dunyo") tushunchasi ilk bor qadimgi grek faylasufi Demokritning qarashlarida uchraydi [1]. Uning fikricha aqlli odam o'z hayotida tabiat, kosmos bilan muvofiqlikda yashashi lozim.

Epikur va uning izdoshlari fikricha, inson qanchalik tabiiy yashasa u shunchalik tabiatga yaqin bo'ladi, ya'ni odamning tanasi tabiatga tegishli. Stoiklar esa aqlli odamlar tabiat bilan jips bog'langan bo'ladilar, chunki tabiatda tabiiy aql mavjud, deb hisoblashgan. Butun tabiat umumiy qonunning aks etishidir, uni o'rganish juda ham muhim chunki u ayni bir paytda inson uchun ham qonun, inson ham unga asoslanib yashamog'i kerak. Ko'rinib turibdiki, antik davr ongida inson va tabiat bir-biriga qarama-qarshi qo'yilmagan.

Antik davrda nafaqat tabiat haqidagi tasavvurlar, balki unga bo'lgan munosabat ham o'zgargan. Bu davr ekologik dunyoqarashida tabiat bilan nopragmatik munosabat (sodda va stixiyaligidan qat'iy nazar) – ratsionalizm va irratsionalizm birligi xarakterlidir. Antik davr kishisi uchun tabiat nafaqat moddiy, shu bilan birga ruhiy qadriyat hisoblangan. Tabiat garmoniya (yetuklik) namunasi, timsoli sifatida amal qilib, inson kundalik hayotida unga taqlid qilishi kerak bo'lgan. Tabiat go'zalligi, mukammalligi va garmoniyasi antik adabiyotning eng keng tarqalgan mavzularidan biri bo'lib qolgan.

Bu davrda tabiatni ilmiy bilishga intilish boshlanib, u o'rganish obyektiga aylanadi. Tabiat va insonning bir-biridan ajratilishi o'rta asrlarga kelib ularni bir-biriga qarshi qo'yishga, ekologik dunyoqarashda ham bir-biriga diametrial qarama-qarshi idealistik va materialistik yo'nalishlar kurashi keskinlashuviga asos bo'lib xizmat qildi.

Ekologik dunyoqarashning umuminsoniy xususiyatlarini shakllantirishda Sharq va G'arb allomalari ijod namunalarini ilmiy o'rganish, umumlashtirish va transformatsiya qilish tabiiy atrof-muhit muhofazasiga doir qadriyatlarni universallashtiradi.

XX asrning so'nggi choragidan boshlab, insoniyat tabiatni zamonaviy antropogen, antropotexnogen bosimlarga dosh bera olmasligini, uning o'z-o'zini tiklash imkoniyatlari ko'rsatilgan bosimlar kuchidan bir necha barobar kamligini anglab



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

oldilar. Ularni tushunish uchun insoniyat, eng avvalo, o'zining tabiiy-ilmiy tafakkuriga, falsafiy, diniy va boshqa dunyoqarashlar tizimiga murojaat qilishga majbur bo'lmoqda. Bunga misol sifatida AQShda shakllangan "invayronmentalizm" g'oyasi va uning amalda namoyon bo'lishi "Rim klubi" faoliyati ekologik dunyoqarashning o'ziga xos yo'nalishi sifatida e'tiborga munosib.

Amerika kashf etilib, o'zlashtirish boshlanganda uning tabiiy resurslari cheksiz ko'ringan bo'lsa-da, XIX asr o'rtalariga kelib o'zlashtirilmagan yer maydonlari tugab qoldi. Bu ekologik inqirozning boshlanishi edi. Tadqiqotchilar A.Ergashev va T.Ergashevlarning ma'lumotlariga ko'ra, agar o'tgan asrda har yili tabiatdan bittadan tur yo'qolgan bo'lsa, keyingi 50-60 yil ichida 76 dan ortiq turlar yo'qolib ketgan, 600 ga yaqin turlar esa yo'qolish arafasida. [2] Insonlar bu inqiroz mazmunini anglash jarayonida tabiiy muhit bilan yangicha munosabatlar qurish zarurligini tushunib oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шуни айтиб ўтиш керакки, табиатдан бегоналашувнинг архаик ва антик даврга ажратилиши Европа маданиятига тааллуқли, Миср, Икки дарё оралиғи – Мовороунаҳр учун бу даврларга ажратиш характерли эмас, уларда бундай бегоналашув анча илгарироқ содир бўлган.
2. Эргашев А., Эргашев Т. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2005. 241- б.
3. Эргашев А., Эргашев Т. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2005. 241- б.
4. Бунда ҳар қандай таълимотнинг, моҳиятан муайян дунёқарашни тарғиб қилиш функцияси назарда тутилмоқда.
5. Nomozov, Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI." MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS 1.2 (2024): 113-118.
6. O'G'Li, Nomozov Xurshid Shavkat. "YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI." Research Focus 2.6 (2023): 105-110.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

7. Nomozov, Xurshid. "THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Gospodarka i Innowacje* 22 (2022): 229-231.
8. Xurshid, Abdullayev. "GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO 'LLARI." *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi* 19.1 (2025): 299-303.
9. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA'SIRIDA SODIR BO 'LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOIYLASHUV SHAKLLARI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 52-58.
10. Nomozov, Xurshid. "JAMIYAT IJTIMOIYLASHUVIDA INSTITUTLARI O'RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O 'RNI." *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION* 1.2 (2024): 83-88.
11. Xurshid, Nomozov. "AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOIIY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI." *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari* 41 (2025): 632-636.
12. Nomozov, Xurshid. "OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOIIY FUNKSIYASI." *TAMADDUN NURI JURNALI* 1.64 (2025): 253-255.
13. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "YOSHLARNING IJTIMOIIYLASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O'RNI." *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari* 5.2 (2025): 27-31.
14. Shavkat o'g'li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.
15. Omonov, Bahodir Nurillayevich. "MARKAZIIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIIY INTEGRATSIYA-MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIIY OMILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 4.21 (2024): 529-535.
16. Nurillayevich, O. B. "ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

ЎЗГАРИШЛАР." PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL,(SI-1) (2022).

17. Омонов, Баходир Нуриллаевич. "Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения." *Gospodarka i Innowacje* 44 (2024): 235-242.

18. Omonov, B. N. "O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari." *Философия и право* 28.2 (2024): 41-43.

19. Omonov, Bahodir. "EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI." *Modern Science and Research* 4.3 (2025): 125-128.

20. Omonov, B. N. (2024). MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA–MUAMMOLAR YECHIMINING ASOSIY OMILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(21), 529-535.

21. Nurillayevich, O. B. (2022). ЭКОЛОГИК ГЛОБАЛЛАШУВ КОНТЕКСТИДА ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ЭКОЛОГИК ВАЗИЯТДАГИ ЎЗГАРИШЛАР. *PHILOSOPHY AND LIFE INTERNATIONAL JOURNAL*,(SI-1).

22. Омонов, Б. Н. (2024). Идейно-политический путь просветительского и джадидского движения. *Gospodarka i Innowacje*, 44, 235-242.

23. Omonov, B. N. (2024). O 'zbekiston ekologik siyosatining strategik asoslari. *Философия и право*, 28(2), 41-43.

24. Omonov, B. (2025). EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING O 'RNI. *Modern Science and Research*, 4(3), 125-128.

25. Nomozov, X. (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON RESURLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 113-118.

26. O'G'Li, N. X. S. (2023). YUKSAK AXBOROT MADANIYATI–INTERNET-MAKON RESURLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI. *Research Focus*, 2(6), 105-110.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th November, 2025

27. Nomozov, X. (2022). THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Gospodarka i Innowacje*, 22, 229-231.
28. Xurshid, A. (2025). GLOBAL MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO ‘LLARI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 19(1), 299-303.
29. Shavkat o‘g‘li, N. X. (2024). JAMIYATDA INTERNET-MAKON KONTENTLARI TA’SIRIDA SODIR BO ‘LAYOTGAN NEGATIV IJTIMOYILASHUV SHAKLLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR*, 1(2), 52-58.
30. Nomozov, X. (2024). JAMIYAT IJTIMOYILASHUVIDA INSTITUTLARI O’RNI VA INTERNET-MAKONNING UNDAGI O ‘RNI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 83-88.
31. Xurshid, N. (2025). AXBOROT XURUJLARINING MANBALARI, ULARNING IJTIMOY MUHITDA AMALGA OSHISH USULLARI. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 41, 632-636.
32. Nomozov, X. (2025). OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING IJTIMOY FUNKSIYASI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 1(64), 253-255.
33. Shavkat o‘g‘li, N. X. (2025). YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIDA INTERNET TARMOQLARINING O’RNI. *Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari*, 5(2), 27-31.
34. Shavkat o‘g‘li, Nomozov Xurshid. "INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI." *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G ‘OYALAR* 1.2 (2024): 48-51.